

## BADIIY MATNDA INGLIZ TILI MISOLIDA SUBSTANSIAL SINTAKTIK-SEMANTIK BELGI HAQIDA

*Sobirova Nigina Aliyevna*

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti*

*“Tillar” kafedrası Ingliz tili o’qituvchisi*

*E-mail: sobirovan682@gmail.com*

*Tel: (99)000-63-82*

**Annotatsiya:** Bu maqola ingliz tilidagi badiiy matnlarda substansial sintaktik-semantik belgi va ingliz tilida lokativlikni ifodalovchi unsurlar haqida.

**Kalit so’zlar:** substansiya, lingvistika, tushuncha, semantik belgi, struktural belgi, protsessuallik, kvalifikatsiyalik, lokativ.

**Аннотация:** В этой статье исследуется содержательная синтаксическая и семантическом знаке и элементах, представляющих местный падеж в английском языке.

**Ключевые слово:** субстанция, языкознание, концепт, семантический признак, структуральный признак, процессуальный, квалификационный, местный.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, har bir sohada bo’layotgan tub o’zgarishlar ta’lim sohasiga ham o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Ta’lim olish, uni amalda qo’llash, mamlakatimiz taraqqiyotini rivojlantirish bugungi kun yoshlarning oldiga qo’ygan ulkan maqsadlaridan biridir. Ma’lum-ki tilshunoslikda tahlil turlari ko’p. Aynan badiiy matnlarning semantik-struktural tahlili hali to’liq o’rganilmagan. Shu boisdan bu masala tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Substansial sintaktik-semantik belgi atamasi ham yangi terminlardan biri hisoblanib, uni o’rganish borasidagi ishlar O’zbekistonda sanoqli desak yanglishmagan bo’lamiz.

Matn bu tilshunoslikdagi juda keng aspektlardan biri. Mazkur maqolada badiiy matnlarda substansial sintaktik-semantik belgi haqida o’rganilgan bir qator ishlarni misol qilib olinib, ularning dolzarb ahamiyat kasb etishi tadqiqotlarda ham o’z aksini topgan. Shu boisdan ushbu maqola oldiga qo’yilgan maqsad ingliz tilidagi badiiy matnlarda substansial sintaktik-semantik belgi va ingliz tilida lokativlikni ifodalovchi unsurlar orqali ularni yanada mukammalroq tadqiq etishdan iborat. Ingliz adabiyoti jahon adabiyotining bir bo’lagi sifatida insoniyat ong va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida alohida bir sahifani tashkil etadi.

Ingliz va o’zbek tillarida lokativlikni ifodalovchi unsurlar, ya’ni asosan ot bilan ifodalangan elementlarni semalarga ajratib tahlil qilinadi. Gap qurilmasini semalarga ajratib tahlil qilishda avvalambor kategorial belgilarni ya’ni “protsessuallik”, “kvalifikativlik”, “substansiallik” semalarni aniqlashdan iborat.

Ma'lumki, “protssuallik” atamasi protsess, ya'ni jarayon ma'nosini ifodalab, u substansial va kvalifikativ belgilarga qarama-qarshi qo'yiladi. “Protssess” atamasi fe'l bilan ifodalangan xarakterga nisbatan aniq tushuncha hisoblanib, u fe'ldan yasalgan ot ifoda etgan ma'noni hamdir. Protssual sintaksema kategorial sintaktik-semantik belgilardan biri sifatida xizmat qilibgina qolmay, u sintaktik sathda aksionallik (harakat), deriktivlik (yo'naltirilganlik) va stativlik (holat) kabi bir qancha nokategorial belgilarni ham aks ettiradi.

Kategorial belgilardan kvalifikativlik, protssuallik va substansiallik belgilaridan farqli o'laroq, sintaktik unurning u yoki bu belgisini yoki xususiyatini anglatishi bilan farqlanadi. Har uchala kategorial belgilarning ifodalanishi turlichadir, ya'ni turli so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin. Shuning uchun ham substansiallikni so'z turkumlaridan ot bilan almashtirmaslik kerak, chunki substansiallik ot, olm osh, sifat, son, xatto ravish orqali ham ifodalanishi mumkin.

Protssuallik esa “harakat yoki holatni anglatadi” hamda fe'lining shaxsli va shaxssiz shakllari, ayrim hollarda boshqa so'z turkumlari yordamida ham ifodalanadi.

Demak, kvalifikativlik ham turlicha so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin hamda nokategorial belgilari bilan substansiallik hamda protssuallikdan farq qiladi. Substansiallik masalasiga kelsak, u kategorial sintaktik-semantik belgilardan biri bo'lib, u predmetni yoki substansiyani ifodalash bilan bog'liq tushunchadir.

Substansiallikning boshqa kategorial belgilardan, ya'ni protssuallikdan va kvalifikativlikdan farqi shundaki, protssuallik aksionallik (harakat) yoki stativlik (holat) ni, kvalifikativlik kvalitatiflik (sifat), kvantitatiflik (son), stativlik kabi nokategorial belgilarni ifodalasa, substansiallik esa identifikatsiyalangan, identifikatsiyalantiruvchi, agentivlik, temporallik hamda lokativlik kabi nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilarni ifodalaydi.

Ammo bizning tadqiqotlarimizda ingliz va o'zbek tillari gap qurilmasida yadro bo'lmagan *tobe* komponent o'rnida kelgan lokativlikni ifodalovchi sintaktik birliklarni tahlil qilishda biz asosan substansiallik sema bilan ish ko'ramiz.

Lokativlik yoki makonning ifodalanishi ingliz tili misolida predlog+ot, o'zbek tilida esa ot+kelishik qo'shimchalari yordamida o'z ifodasini topadi.

Ammo qayd etish joizki, ingliz tili misolida barcha predlog+ot yoki o'zbek tilida ot kelishik qo'shimchalari bilan birga har doim ham substansial lokativ semalarni ifodalay olmaydi:

**Masalan:**

1) *You sat in the room*

*He was asked in ten minutes*

Ushbu gaplarda *in the room* va *in ten minutes* sintaktik birliklar substansiallikni

ifodalasada, birinchi gapda *in the room* substansial lokativlikni ifodalasa, ikkinchi gapda *in ten minutes* – substansiallik va temporallikni ifodalaydi.

Bunda semalarni isbotlashda substansial lokativ va temporallikni ifodalagan elementlarni adverbial elementlar bilan almashtirish mumkin.

*You sat in the room you sat here/there*

*He was asked in ten minutes he was asked then.*

Yoki *where* va *when* so‘roq qo‘yish yo‘li bilan ham buning guvoxi bo‘lishimiz mumkin:

*You sat in the room where did you sit?*

*He was asked in ten minutes when was he asked?*

O‘zbek tili misolida ham shunday holatni ko‘ramiz.

*Samarqandda qaxramonning yozuvchi jiyani bor*

*Baxorda Olim polvon ko‘p ishlaydi*

Bu gaplarda ham substansiallikni ifodalagan sintaktik birliklarni, ya‘ni Samarqandda adverbial elementlar u yerda (shu yerda, Baxorda esa o‘sha paytda) kabilar bilan almashtirish mumkin yoki qayerda va qachon so‘roqlarni qo‘yish mumkin:

*Samarqandda qaxramonning yozuvchi jiyani bor u yerda qaxramonning yozuvchi jiyani bor qayerda qaxramonning yozuvchi jiyani bor?*

*Baxorda Olim polvon ko‘p ishlaydi usha paytda Olim polvon ko‘p ishlaydi qachon Olim polvon ko‘p ishlaydi?*

Yuqorida qayd qilganimizdek substansiallik semalar bazasida lokativlik semalarni va uning variantlarini eksperiment metod yordamida aniqlanadi.

Differensial sintaktik-semantik belgilardan lokativ adessiv semalarning ifodalanishi qarindosh bo‘lmagan tillar tizimida turli-tumanligini ko‘rib chiqdik.

Ingliz tilida lokativ adessiv semalarni ifodalanishi predloglar *in, on, at, about, across, over, under, at the bottom of, behind, on the other side of, by, near, in front of, against, opposite, around, among* va otning bosh kelishik shaklida beriladi. O‘zbek tilida *otga* – da qo‘shimchasi ko‘shilishi yordamida hamda *S + o‘rin* ravishlaridan *ustida, ostida, tagida, orkasida, oldida, yonida, qarshisida, atrofida, ichida, tevaragida, o‘rtasida, orasida* kabilar yordamida ifodalanadi. Shu borada qayd etish joizki o‘zbek tilida lokativ adessiv semani ifodalash bilan birgalikda ba‘zan possessivlik (egalilik) semasini ham ifodalaydi.

Masalan:

1. Dalalarimda qushlar ko‘rdim

2. Xo‘jaligimizda 3 mingdan ziyod xonadon bor

Bunday holat ingliz tiliga xos emas. Undan tashqari lokativ adessiv semalarni ingliz tilida predlog + S yordamida ifodalangan misollarni adverbial elementlar there, here, o‘zbek tilida ham u yerda, shu yerda birliklar bilan almashtirish transformatsiyasi yordamida isbotlanadi.

Ingliz tili misolida lokativ adessiv semalar *to be* komponent o‘rnida kelib, subordinativ aloqa asosida quyidagi semalar bilan bog‘lanishi mumkin:

1. Obyekt sema bilan:

He makes a job at the pand

2. Possessiv sema bilan:

She had worked industriously at Colarossi's Academy

3. Temporal sema bilan:

He had already spent morning at the Hotel Dieu

4. kvalitatiflik yuklatilgan substansial sema bilan:

But at the operating table Arthur was different

5. aksional sema bilan:

Who had just stopped at the inn, came to the door of the room

6. substansial obyekt sema bilan:

The hotels at shiplake and Henley would be crammed

7. aksional obyekt sema bilan:

Harris wanted to get out at Hampton Church

8. ekzistensial sema bilan:

I don't believe he is at the bank

9. sotsiativ sema bilan:

He invited her to lunch with him at a restaurant

10. aksional deriktiv sema bilan:

She was seated at the roval table

11. lokativ allativ sema bilan:

Ne had come to the shore at dawn

12. stativ sema bilan:

You shall live at the palace

13. modal stativ sema bilan:

They were to sleep in the same room

14. identifikatsiyalantiruvchi sema bilan:

They are monuments in Bisham Church

O‘zbek tilida lokativ adessiv sema gap qurilmasida tobe komponent o‘rnida kelib, quyidagi semalar bilan subordinativ aloqa asosida birikishi mumkin:

1. aksional sema bilan:

Men oyna oldida shlyapa kiyib ko‘rdim (RBAD, 126)

2. kvantitativ sema bilan:

Bozorda bir qilo go'sht to'qqiz sum (TMM, 123)

Kolxozda arizaboz ko'p (SHOZ, 124)

3. negativ ekzistensial sema bilan [57]:

Ayolimiz joyida bo'lmaydi (PQYUT, 139)

4. ekzistensial sema bilan:

Yo'llarda siyrak tuklar bo'ldi (ADK, 148)

5. stativ sema bilan:

Tunda tolshoxda uxlaydi (ADK, 150)

6. kvalitativ sema bilan:

Bugungi kunda gapdan yirik sintaktik butunlikni-matnning lingvistik tabiati bilan bog'liq tadqiqotlarning sifati va ko'lami ortib bormoqda. Matn muammosi hozirgi kunda jaxon tilshunosligida ham eng dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, badiiy matning shakillanish tarzi, badiiy matn komponentlari o'rtasidagi semantik-sintaktik munosabatlarning tadqiqotchilar e'tiboridan tushmayotganligi mavzuning ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek, tahlil mohiyati va tabiati masalasida boshqa tilshunosliklarda bo'lgani kabi ingliz tilshunosligida ham haligacha aniq bir to'xtanga kelinmagan. Holbuki, matn tilshunosligi muammolarini tahlil va talqin qilishda ilova xodisasining ahamiyati beqiyos ekanligini isbotlab o'tirish shart emas. Badiiy asar tili tadqiqotchilari, xususan badiiy matnga lingvopoetik yondashuv muammolarini tadqiq etgan o'zbek tilshunoslari ham ushbu xodisaning o'rganilish lingvopoetik jihatdan jiddiy ahamiyatga molik ekanligi alohida takidlaydilar.

Til insonning mohiyati ruhiyati va faoliyatini turli nuqtai nazardan tadqiq etuvchi eski va yangi fanlarning markaziy ayni paytda o'ta murakkab ob'ekti sifatida favqulotda o'ziga xos xodisadir. Bu sirli xodisaning bevosita reallashish, namoyon bo'lish, qismlarga ajratish, har bir qism yoki qismchani alohida tassavur eta bilish, shuningdek, bu qism yoki qismchalar o'rtasidagi mutanosib va hatto nomuttanosib munosabatlarni idrok qilishday bir bosqichga yetib kelgunga qadar inson aqli uzoq va mashaqqatli tadrijiy takomil yo'lni bosib o'tganligi shubhasiz. Inson uzligini ifodalashda aytilgan takomil yo'li jarayonlarida tildan foydalanishning, mazkur nutq parchalarini bir-biri bilan biriktirishning shunday usullarini ham kashf etganki, natijada badiiy nutq deyiladigan mo'jizakor bir vositanning badiiy stil muallifiga aylangan. Aynan shunday go'zal nutqning betakror shakllari, namunalari sifatida yuzaga kelgan so'z durdonalari- afsonalar, asotirlar, dostonlar, ertaklar, maqolu-matallar, topishmoqlar, qo'shiqlar, she'rlar, drammlar, hikoya, qisa va romanlar insoniyat badiiy dahosining ro'yob shahodatnomalari sifatida yashab kelmoqda, yaratilmoqda va albatta, bundan keyin ham yaratiladi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning

birinchi qatorida turadi”. Badiiy matn badiiy asr mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyalari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallif ixtiyoriga ko‘ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq, berish, xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek qat‘iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to‘la-to‘kis amal qilavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta’sirchanlik birinchi darajada ko‘tariladi.

Har bir so‘z (leksema) o‘ziga xos bog‘lashuvga ega bo‘lib, o‘zining ichki ma’noviy belgilari asosida u yoki bu turdagi so‘zlar va grammatik shakllar bilan kengaytirilishni yohud izohlanishni, aniqlanishni talab etadi. Til birliklarining sintagmatik munosabati ularning ichki ma’nosi bilan bog‘liq. So‘z leksik ma’nosi qanday yoki qanaqa mantiqiy semaga ega bo‘lsa, shu semasiga mutanosib holda valentlikka ega bo‘ladi. Ya’ni, “So‘zning sintaktik xususiyati va semantik komponentlari o‘rtasida doimiy mutanosiblik mavjud bo‘lib, bunday mutanosiblikni yuzaga chiqaruvchi vosita valentlikdir”. Valentlik nazariyasi tilshunoslikga, dastlab, S.D.Kastnelson tomonidan kiritilgan. U valentlikni so‘zning o‘ziga xos xususiyati ekanligini e’tirof etadi va shunday yozadi: “Valentlik so‘zning ma’nosi asosida boshqa so‘zlar bilan sintaktik munosabatida namoyon bo‘ladi”. Keyinchalik, bu nazariya L.Tenyerning verbatsentrik nazariyasi asosida yanada rivojlandi. Uning 1953-yilda nashr ettirgan «Struktural sintaksis asoslari» nomli kitobida bu atamaning tildagi xususiyatlari asoslanib, har bir so‘z ikkinchi bir so‘z bilan bog‘lanuvchi aniq bir xususiyatga ega ekanligi va bu strukturalardan, gaplardan iboratligi ta’kidlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, gap qurilmasi sintaktik tahlil qilinganda sintaktik birliklarni bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratib tahlil qilish ko‘pgina tilshunoslar tomonidan tanqidiy nazar bilan qaralib kelinmokda. Chunki gapning sintaktik tahlili asosan gap bo‘laklariga savol quyish usuli bilan olib boriladi. Undan tashkari jahon tilshunoslari tomonidan e’tirof etilgan sintaktik aloqalar moslashuv, bitishuv, boshqaruv kabilar gap qurilmasida emas balki so‘z birikmalari asosida namoyon bo‘ladi. Ammo biz gap qurilmasida ishtirok etgan sintaktik birliklarning o‘zaro sintaktik aloqalarini hamda ularning differensial sintaktik va differensial sintaktik-semantik belgilarini, ularning boshqa semalar bilan ma’lum sintaktik aloqa asosida bog‘lanish imkoniyatlarini aniqlashga hamda ularning konnotativ, fakultativ va adverbial variantlarini qiyoslab o‘rganishga bag‘ishladik. Birgina o‘rin holi vazifasida kelgan sintaktik birliklarning sintaktik satxda semantik maydoni o‘rganilmaganligining isboti ushbu misollarda yaqqol ko‘zga tashlanadi I live in Tashkent. I go to Tashkent. I came from Tashkent. I came to Samarkand via Tashkent. I went along the street gaplarida in Tashkent, to Tashkent, from Tashkent, to Samarkand via Tashkent, along the street sintaktik birliklar barcha tillarda “o‘rin holi” deyiladi. Ammo ularning differensial sintaktik-semantik belgilari, ya’ni ularning

farqli tomonlari o'rganilmasdan kelinmoqda. Lokativlikni ifodalovchi unsurlarni yoki sintaktik birliklarni semalarga ajratib tahlil qilish natijasida kategorial sintaktik-semantik belgilardan protsessuallik, kavilfikativlik va substansiallikdir. Mazkur maqolamda faqat substansiallik asosida ingliz tilida nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan lokativ adessiv, lokativ allativ, lokativ ablativ, lokativ translattiv, lokativ obyekt, lokativ instrumental, lokativ tarz va lokativ possessiv semalarini misol qilib keltirdim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. - 686 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi umumiy yig'ilishida so'zlagan nutqidan. “O'zbekiston ovozi”, 1994,9 iyul.
3. Abdurazzakov M.A. Очерки по сопоставительному изучению разносистемных языков. - Ташкент, Фан, 1973. - 167 с. 4.
4. Aga-Zade N.G. К вопросу сопоставительного анализа изучения языков // ИЯШ. - Москва, 1960, №6, С. 107-112.
5. Arnold I.V. Семантическая структура слова в современном английском языке и методика ее исследования. Ленинград: ЛГГТИ им А.И.Герцина, 1966. - 128 с.
6. Usmonov U. Gap tahliliga yangicha yondashuv // Xalqaro ilmiy-anjuman materiallari. SamDCHTIning 10 yilligiga bag'ishlanadi. - Samarkand: SamDCHTI nashri, 2004. - B. 106-107.
7. Usmonov U. “Компонентный и синтаксемный анализ неполных предложений и их применение в сравнительной типологии // Общелингвистические проблемы романских и германских языков, Научные труды” SamGU, Samarkand, 1992 - S. -213-216.
8. Usmonov O'.U. Talabalarga sintaktik tahlilni o'rgatishga doir ayrim muloxazalar // Chet tili o'qitish metodikasining asoslari / Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Samarqand, 2011 yil, 12-13 aprel, SamDCHTI, Samarkand-2011 - B. 35-37.
9. <http://www.svntagma.hl.ru/nau/article46.htm>.
10. <http://www.2devochki.ru /105/1814/1 .html>.
11. <http://www.2devochki.ru/29/4866/1.html>
12. <http://linguistics.berkelev.edu/-svntax-circle/svntax-group/spr08/anderson.pdf>
13. HTML://mcu.edu.tw/-ssmith/ling/fall2007svntax2.ppt